


XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



Ish haqi. 2025- yil yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyati shahar, tumanlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda. Viloyatda o'rtacha oylik ish haqi 7 486,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Uchquduq tumanida 11 498,0 ming so'mni (viloyatning o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 153,6 %), Zarafshon shahrida 10 535,0 ming so'mni (140,7 %), Konimex 8 363,1 ming so'mni (111,7 %),

Navoiy shahrida 8 047,5 ming so'mni (107,5 %) tashkil etgan bo'lsa, Karmana tumanida 5 463,0 ming so'mni (73,0 %), Tomdi tumanida 4 665,2 ming so'mni (62,3 %), Navbahor tumanida 3 682,4 ming so'mni (49,2 %), G'ozg'on shahrida 3 612,5 ming so'mni (48,3 %), Xatirchi tumanida 3 343,0 ming so'mni (44,7 %), Nurota tumanida 3 311,4 ming so'mni (44,2 %) va Qiziltepa tumanida 3 190,2 ming so'mni (42,6 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi* (ming so'mda)



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yil yanvar- iyunga nisbatan, % da)

	2024- yil	2025*- yil	ming so'mda O'sish sur'ati, % da
Jami	6 600,2	7 486,4	113,4
Navoiy sh.	7099,7	8047,5	113,3
Zarafshon sh.	9 756,5	10 535,0	108,0
G'ozg'on sh.	3 185,6	3 612,5	113,4
Karmana	4 540,1	5 463,0	120,3
Konimex	7 194,0	8 363,1	116,2
Qiziltepa	2 820,9	3 190,2	113,1
Navbahor	3 127,3	3 682,4	117,8
Nurota	2 957,8	3 311,4	112,0
Tomdi	3 793,9	4 665,2	123,0
Uchquduq	10 282,4	11 498,0	111,8
Xatirchi	2 958,3	3 343,0	113,0

**)Dastlabki ma'lumot, kichik tadbirkorlik va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz.*

2025- yil yanvar- iyun oylarida Navoiy viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 113,4 foizni tashkil etib, jumladan Tomdi tumanida 123,0 foiz, Karmana tumanida 120,3 foiz, Navbahor tumanida 117,8 foiz, Konimex tumanida 116,2 foiz, G'ozg'on shahrida 113,4 foiz, Navoiy shahrida 113,3 foiz, Qiziltepa tumanida 113,1 foiz, Xatirchi tumanida 113,0 foiz, Nurota tumanida 112,0 foiz, Uchquduq tumanida 111,8 foiz va Zarafshon shahrida 108,0 foizga o'sgani kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

ming so'mda

	<i>Yanvar-iyun</i>		<i>Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da</i>	
	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>
Jami viloyat bo'yicha:	6 600,2	7 486,4	x	x
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	9 526,5	10 744,4	144,3	143,5
Qurilish	7 154,3	7 943,1	108,4	106,1
Savdo	3 743,9	4 011,2	56,7	53,6
Tashish va saqlash	4 833,7	5 978,9	73,2	79,9
Axborot va aloqa	7 662,8	8 344,4	116,1	111,5
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	12 562,6	13 131,6	190,3	175,4
Ta'lim	3 379,0	3 856,6	51,2	51,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 242,7	3 641,4	49,1	48,6
Boshqa faoliyat turlari	5 485,8	6 226,9	83,1	83,2

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati (175,4 %), sanoat (143,5 %), axborot va aloqa (111,5 %), qurilish (106,1 %), boshqa faoliyat turlari (83,2 %), tashish va saqlash (79,9 %), savdo (53,6 %), ta'lim (51,5 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (48,6 %) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

Sanoat sohasida 49 ta korxonada 80 999 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 44,0 %) xodim ishlagan bo'lib, sanoat sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 10 744,4 ming so'mni;

Ta'lim sohasida 688 ta korxonada 46 323 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 25,2 %) xodim ishlagan bo'lib, ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 856,6 ming so'mni;

Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida 60 ta korxonada 20 939 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,4 %) xodim ishlagan boʻlib, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 641,4 ming soʻmni;

Savdo sohasida 11 ta korxonada 1 289 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan 0,7 %), xodim ishlagan boʻlib, savdo sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 011,2 ming soʻmni;

Qurilish sohasida 16 ta korxonada 5 027 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,7 %) xodim ishlagan boʻlib, qurilish sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 943,1 ming soʻmni;

Axborot va aloqa sohasida 11 ta korxonada 614 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,3 %) xodim ishlagan boʻlib, axborot va aloqa sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 344,4 ming soʻmni;

Tashish va saqlash sohasida 7 ta korxonada 1 175 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7 %) xodim ishlagan boʻlib, tashish va saqlash sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 978,9 ming soʻmni;

Bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik sohasida 38 ta korxonada 1 910 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodim ishlagan boʻlib, bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 13 131,6 ming soʻmni;

Boshqa faoliyat turlari sohasida 328 ta korxonada 25 701 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 14,0 %) xodim ishlagan boʻlib, boshqa faoliyat turlari sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 226,9 ming soʻmni tashkil etdi.